

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI** **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **“QARO KO‘ZUM...” G‘AZALINING TOSHBOSMA DEVONLARDAGI MATNI XUSUSIDA**

**Dilnoza RUSTAMOVA**

*O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi lektori*

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14805049>**

**Annotatsiya:** Maqolada “Qaro ko‘zum...” g‘azalining mo‘tabar qo‘lyozmalardagi matni va Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan toshbosma devonlardagi variantlari o‘zaro qiyoslangan. Muallif redaksiyasiga yaqin matnlar ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Qaro ko‘zum...”, qo‘lyozma, toshbosma, “Chahor” devon, g‘azal.

**Annotation:** The article compares the text of the ghazal “Karo Kozum...” in authentic manuscripts and the lithographic divans kept in the fund of the State Literary Museum. Texts close to the author's editorial are shown.

**Key words:** “Karo kozum...”, manuscript, lithograph, “Chahor” devan, ghazal.

**Аннотация::** В статье проводится сравнительный анализ текста газели «Qaro ko‘zum...» из авторитетных рукописных источников и вариантов, содержащихся в литографированных деванах, хранящихся в фонде Государственного музея литературы. Выделены тексты, наиболее близкие к авторской редакции.

**Ключевые слова:** «Qaro ko‘zum...», рукопись, литографированный деван, “Чахор деван”, газель.

Navoiy terma devonlaridagi so‘z va birikmalarining farqlanish holatlari boshqa o‘zgarishlarga qaraganda ko‘proq uchraydi. “Qaro ko‘zum...” Navoiy ijodiy evolyutsiyasining boshlanish davriga tegishli barcha zamonlarda mashhur va eng ko‘p tahlil, talqin qilingan g‘azallaridan biridir. Uning matni shoir hayotligida dastlab “Ilk devon”, keyinchalik “Badoye’ ul-bidoya”, so‘ngida “G‘aroyib us-sig‘ar”dan o‘rin olgan bo‘lsa, XX asrdagi toshbosma devonlarda ham faol she’rlardan sanalgan. G‘azalning asosan 1900-1910-yillardagi nashrlarga kirganligi kuzatiladi. Asar matni xattot Ali ibn Nur tomonidan 1486-yilda Hirotda kitobat qilingan “Badoye’ ul-bidoya”ning Toshkent nusxasi (inv. 216) va Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan Istanbul To‘pqopi saroy kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyoti (Revan 808)<sup>1</sup> bilan qiyoslanganda ayrim juz’iy o‘zgarishlarga uchragani, bu esa mazmunga jiddiy ta’sir ko‘rsatmagani anglashiladi. Bunday o‘zgarishlarning asosiy qismi qo‘sishchalarining turli shaklda qo‘llanilishi bilan sodir bo‘lgan. Xusan, 220-raqamli devonning 1-, 2-baytlari:

قرا کوزوم کیل مردو ملیخ ایدی فن قیلغیل  
کوزوم قراسیغا مردم کیبی وطن قیلغیل.

<sup>1</sup> Keyingi toshbosma matnlar ham aynan shu manbalar bilan qiyoslanganda inventar raqamlarini ko‘rsatish bilan kifoyalaniladi.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

بوزونگ گلیغا کونگول روضه سین یا ساب گولشن  
قىينگ نهالىغا جان گلشنىن چمن قىلغىل.

shaklida berilgan. Mazkur misralar 216 va 808 raqamli qo‘lyozma bilan qiyos qilinganda so‘zi tarzida xato ko‘chirilgani ma’lum bo‘ldi. قراسىدا شاكلدا №6, №229, №912 devonlarda قراسىغا №219 nusxada shaklida yoki 6-baytdagi so‘zining bo‘lib kelishi esa mantiqan xato emas. Zero, boshqaruvchi fe'lning xarakteri bilan bog‘liq holda jo‘nalish kelishigining o‘rin payt kelishigi o‘rnida qo‘llanilish holatlari eski o‘zbek tilida uchrab turadi [1:98]. Qolaversa, 1905-1917-yillar adabiy tilida, xususan, Behbudiyning “Padarkush” dramasida ham “-da” ning “-ga” bilan almashgani “... usuli jadida maktabigami o‘qiydur, yoinki eski maktabga?” shaklida o‘z aksini topgan [2:96]. 2-baytdagi گلىغا so‘zi 5-baytdagi وصالىغا so‘zining deb berilishini esa XX asr boshlarida imlo qoidalarining unifikatsiya qilinmaganligi bilan izohlash mumkin.

“Chor devon”ning Xiva matbaasidagi matnida esa يا ساب birikmasining №912 va №219 nusxalarda يا ساب شاكلida kelishi jumla ma’nosiga biroz ta’sir ko‘rsatgan [3]. Baytning ikkinchi misrasidagi buyruq maylini bildirgan “qilg‘il” radifi o‘zidan oldingi fe’lni ham shu ma’noda kelishini talab etadi. Ya’ni Najmiddin Komilov talqin qilganidek, “Ey yor, ko‘nglimning bog‘ini yuzingning guli uchun gulshan qil, jonimning gulshanini esa qading niholi uchun chaman qilgin”[4:175]. Ravishdosh “-b” yoki o‘tgan zamon sifatdosh “-r” qo‘shimchasi esa bu ma’noga putur yetkazadi.

“Qaro ko‘zum...” g‘azali tahlillarining qiyosiy-tanqidiy tadqiqini amalgalashirmagan adabiyotshunos N.Jumaxo‘ja B.Do‘stqorayev talqinini berayotib “yasab” so‘ziga duch keladi va uni “...nazarimizda, bu shunchaki anglashilmovchilik” deb xulosa qiladi [5:209]. Ammo bu holatning bir necha nashrlarda ham uchrashi “shunchaki anglashilmovchilik” emas, atay o‘zgartirilgan deb qarashga undaydi. Masalan, Xislat o‘z zamonasining ardoqli hofizi Mulla To‘ychi Toshmuhammedovga bag‘ishlab 1912-yilda tuzgan “Armug‘oni Xislat” bayozida “Shashmaqom”ning “Ushshoq” kuyida aytilgan “Qaro ko‘zum” matnida ham يا ساب شаكلida kelgan (14-b.). Mulla Sayidxo‘ja 1910-yil Buxoroda ko‘chirgan №219 va Mulla Yo‘ldosh 1914-yilda Toshkentda kitobat qilgan №912 nusxalarning bayoz bilan vaqtiali bir-biriga yaqindir. Ehtimol, ular tayangan manba o‘xshash yoki ayni bo‘lgan. Ammo N.Jumaxo‘ja ta’kidlaganidek, “Mumtoz asarlar matniga kiritiladigan har qanday o‘zgartish ilmiy jihatdan asoslantirilishi shart” [5:59]. Asos bo‘lmagan holatda matn mazmuni aniqligiga soya solishi mumkin. Shunga qaramay, yuqorida keltirilgan farqlanishlar asar mazmuniga jiddiy ta’sir ko‘rsatmagan deyish mumkin.

№229 va №912 toshbosma devonlardagi “Qaro ko‘zum...”ning so‘nggi bayti:

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

نوайى انجمىنى شوق جان ارا توزىنگ  
انىنگ باشاغلىغى اوقين شمع انجومىن قىلغىلە.

kotiblarning e'tiborsizligi sabab tushirib qoldirilgan.

Ma'lumki, Navoiy devonlaridagi g'azallarning to'rtadan uch qismi, balki, undan ham ko'prog'i, ishq mavzusi bilan bog'liqdir [6:122]. Toshbosmalardagi eng ko'p takrorlanadigan she'rlarni ham muhabbat mavzusidagilari tashkil qiladi. Ulardan xalq orasida mashhur, yod olingani, qo'shiq qilib kuylangani, shubhasiz, "Badoye' ul-bidoya" devonidan olingen oshiq va ma'shuq dialogiga asoslangan "Sanga" radifli g'azaldır. Ushbu asar biz tadqiq etayotgan terma devonlarning barchasida mavjud. Uning ikkinchi bayti №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda quyidagicha:

ھە نىچا دىيىم كى كونكۇندىن اوزايى سىيندىن كوننگلە  
وھ كى كونكۇندىن بىتراك مېتلا بولدوم سنگا.

№872, №306, №771, №19, №219, №220 toshbosma nusxalarda esa mana bu tarzda:

وھ نىچا دىيىم كى كونكۇندىن اوزايى سىيندىن كوننگلە  
وھ كى كونكۇندىن بىتراق مېتلا بولدوم سنگا.

ko'chirilgan. Ko'ringanidek, baytlar orasida ikki farq mavjud. Ulardan biri shakliy - ning davr tili talaffuziga moslangan bo'lsa, keyingisi ma'no farqlanishiga ega ھە نىچا birikmasining وھ qilib o'zgartirilganidir.

Baytning nasriy bayoni bunday: Sendan ko'ngil uzishga har qancha urinmay, ajabki, kundan kun senga chandon bog'lanib qoldim. Agar "vah" so'zining gap mazuniga "oh, o'kinch, tashvish; ajabo, ajab" [7:369] kabi ma'nolarni yuklashi hisobga olinsa, bir baytning o'zida ikki marta ajablanishga hojat yo'q!

Ehtimol, kotiblar keyingi misradagi وھ ga e'tiboran, bayt boshidagi so'zni ham shu asosda o'qigandır. Shunisi ma'lumki, bunday nussxalarning dastlabkisi Shohmurod xattot 1888-yilda ko'chirgan №872 bo'lsa, so'nggisi 1915-yilda Mulla O'tab dastxatiga mansub №220 toshbosmasidir. Boshqa tomondan esa, Shohmurod ibn Shohne'matulloh tayyorlagan matndan keyingi kotiblar foydalangan bo'lishlari mumkin. Zero, XIX asrga dahldor Qo'qon hududida Muhammadlatif ibn Muhammadsharif Keshiy tomonidan ko'chirilgan "Xazoyin-ul-maoniy"ning O'zR FAShI fondida saqlanayotgan №9746 hamda №1715 qo'lyozmalarida yoki "Chahor devon"ning yagona to'liq toshbosma nashri sanalgan №10293da ham bunday farqlanish mavjud emas.

"Badoye'-ul-vasat" devonidan kirgan quyidagi g'azal matlasi ham №872, №306, №237, №19, №220 toshbosmalarda biroz o'zgarish bilan ko'chirilgan:

كونگلۇم بۇزۇر غەینىڭ تۇنى ھە لەحظە قىغۇلۇق  
چۈن شام بولدى ھە نفس آرتىر قارانغۇلۇق.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Uning matni №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda:

كونگلوم بولور غمینг تони هر لحظه قигуловق  
چон شام بولدی هر نفس آرتр قارانгуловق.

shaklida tog'ri berilgan.

Toshbosma nusxadagi so'zining бозор о'rnida ishlatalishi bayt mazmuniga zarar yetkazmagan. G'am tunining har onida qayg'u ko'ngilni buzishi va qalbning qayg'uda bo'lishi o'rtasida unchalik katta tafovut yo'q. Shu bilan birga, g'azalning 6-baytda ham quyidagicha holatni ko'rish mumkin:

андин فлкни айлмс акин козгा пр дир.  
ким бо айрор хавир жнаби анинг алуоч.

Baytning tog'ri matni esa №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda bu tarzda berilgan:

айдин флкни айлмс акин козгा пр дир  
ким бо айрор хавир жнаби анинг алуоч.

Ko'rinish turibdiki, ى harfining so'z o'rtasida kelgan shakli xato o'qilishi natijasida "oydin falak..." sifatlovchi aniqlovchili birikmasining ma'nosi o'zgargan. "Andin falakni ilmas ekan ko'zga piri dayr" misrasida fikr noaniqlik kasb etgan.

Matnlar tahlili ayrim farqlanishlar hatto qo'lyozmalarda ham turlicha ekanligini ko'rsatsa, ayrimlari kotibning mumtoz matnni yaxshi anglamasligidan, ba'zisi yagona imlo qoidasi mavjud emasligidan bo'lsa, boshqalari davr tiliga moslashtirib, soddalashtirish oqibatida yuzaga kelganiga guvohlik beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Абдурахмонов F, Шукурев Ш, Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 98.
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. I жилд. – Т.: Akademnashr, 2021. – Б. 96
3. Chor devon. №10293, O'zR FASHI fondi.
4. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Тамаддун, 2012. – Б. 175.
5. Жумахўжа Н. "Қаро кўзум..." ғазали тадқиқи. – Т.: Мухаррир. 2021. – Б. 209.
6. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Ўзбекистон. – Б. 122.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Тўрт томлик. I жилд. – Т.: Фан. 1983. – Б. 369.